

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEKISTONDA HUNARMANDLARNI KOOPERATIVLASHTIRISH JARAYONIDA SOVET HUKUMATINING SINFIY SIYOSATI

Gulchehra Dadamirzayeva

Namangan davlat universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: gulichexrad@mail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-7563-243X>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonda sovet hokimiyati qurilishining dastlabki yillarida kosib-hunarmandlarga nisbatan olib borilgan davlat siyosati hamda xususiy sektorning tugatilishining tarixiy shart-sharoitlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, hunarmandlarning kooperativ ishlab chiqarishga jalb etilishi, artellarning ijtimoiy tarkibi hamda sinfiy siyosatning oqibatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, kooperatsiya, kooperativ, artel, yangi iqtisodiy siyosat, xususiy kapital, sinfiy siyosat, xususiy tadbirkor, "yot unsur", ijtimoiy qatlam, kooperativlashtirish.

КЛАССОВАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ПРОЦЕССЕ КООПЕРИРОВАНИЯ РЕМЕСЛЕННИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Гулчехра Дадамирзаева

Наманганский государственный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируются государственная политика в отношении ремесленников и кустарей в первые годы установления советской власти в Узбекистане, а также исторические предпосылки ликвидации частного сектора. Кроме того, рассматриваются процесс вовлечения ремесленников в кооперативное производство, социальный состав артелей и последствия классовой политики.

Ключевые слова: ремесленничество, кооперация, кооператив, артель, новая экономическая политика, частный капитал, классовая политика, частный предприниматель, «чуждый элемент», социальный слой, кооперирование.

THE CLASS POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE PROCESS OF COOPERATIVIZING ARTISANS IN UZBEKISTAN

Gulchehra Dadamirzayeva

Namangan State University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article analyzes state policy toward artisans and handicraftsmen during the early years of the establishment of Soviet rule in Uzbekistan, as well as the historical conditions that led to the elimination of the private sector. It also examines the involvement of artisans in cooperative production, the social composition of artels, and the consequences of Soviet class policy.

Keywords: handicrafts, cooperation, cooperative, artel, New Economic Policy, private capital, class policy, private entrepreneur, "alien element," social stratum, cooperativization.

Kirish. Yangi iqtisodiy siyosat yillarida hunarmandchilik kooperatsiyasining o'ziga xos jihati, bir tomondan, uyushma tizimining tashkiliy va xo'jalik jihatdan zaifligi hamda barcha kooperativlarni qamrab ola olmasligi, ikkinchi tomondan esa, davlatning xususiy kapitalni hamda yirik va o'rta sanoatni siqib chiqarishga qaratilgan siyosati bilan bog'liq edi. Shu sababli xususiy tadbirkorlar ma'lum muddat kooperativ niqobi ostida faoliyat yuritish imkoniga ega bo'ldilar.

Bu davrda kosib-hunarmandchilik kooperatsiyasining rivojlanishi davlatning iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Bir tomondan, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan erkin xo'jalik faoliyatiga ruxsat berildi, ikkinchi tomondan esa, kooperativ tuzilmalar ustidan partiya-davlat nazorati saqlanib qoldi. O'zbekistonda kosib-hunarmandchilik kooperatsiyasining tashkiliy qurilishi bir xil bo'lmagan. Ayrim hududlarda kooperativ uyushmalar tezroq shakllandi, boshqalarida esa bu jarayon sust kechdi. Bu hol aholining ijtimoiy tarkibi, mahalliy iqtisodiy an'analar, xomashyo bazasi va bozorlarga yaqinlik kabi omillar bilan izohlanadi. YIS davrida kosib-hunarmandchilik kooperatsiyasi tizimida soxta kooperativlar ham mavjud bo'ldi. Ular rasman kooperativ sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa-da, amalda xususiy tadbirkorlik manfaatlariga xizmat qildilar. Bu hol davlat tomonidan xususiy kapitalni cheklash siyosati bilan bog'liq bo'lib, tadbirkorlar kooperativ niqobi ostida faoliyat yuritishga majbur bo'ldilar. Shunday qilib, O'zbekistonda kosib-hunarmandchilik kooperatsiyasining rivojlanishi murakkab, ziddiyatli va ko'p qirrali jarayon bo'ldi. U bozor elementlari bilan ma'muriy-buyruqbozlik usullarining o'zaro uyg'unligida amalga oshirildi. Ushbu tajriba mamlakat tarixida muhim o'rin egallab, keyingi yillarda kooperativ tizimni tubdan qayta qurish

jarayonlariga asos bo'lib xizmat qildi.

Muhokama

Xususiy kapital xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kabi hunarmandchilik kooperatsiyasidan ham har tomonlama o'z shaxsiy manfaatlarini yo'lida foydalanishga intilar edi, ayniqsa, chekka hududlarda, u yerlarda hunarmandchilik kooperatsiyasi tashkiliy jihatdan hali yetarlicha mustahkamlanmagan edi. Shuningdek, hunarmandlarni kooperatsiyaga kirishdan qaytarishga qaratilgan boylar targ'iboti ham mavjud edi. Olib borilgan keng qamrovli kurashga va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga qaramasdan, ijtimoiy jihatdan "begona unsurlar" hunarmandchilik kooperatsiyasi artellariga kirib kelar, soxta kooperativlar tashkil etar va foyda orttirar edilar. Masalan, Toshkent shahridagi "Qizil trikotajchi" artelida olti nafardan ortiq yollanma ishchiga ega bo'lgan bir artelchi aniqlangan. "Spetsmilo" nomli soxta kooperativda esa bir guruh dallollar faoliyat yuritgan bo'lib, ular oxir-oqibat qo'lga olingan [10:20].

Hunarmandchilik artellarida ishlab chiqarishni texnik jihatdan tashkil etishda asosiy e'tibor sotsialistik ishlab chiqarishni barpo etish imkoniyatini yaratishga qaratildi. Bu o'rinda asrlar davomida shakllangan va bozor qonuniyatlari asosida faoliyat olib borgan kosib-hunarmandda individual psixologiyaning yo'qolib borishi, uning o'rniga esa ularda kollektiv psixologiyaning rivojlanishi ro'y berishi lozim edi.

1920-yillar davomida davlat siyosati ta'sirida kosib-hunarmandchilik kooperatsiyasining ijtimoiy tarkibi kambag'al qatlam ulushining o'sishi va o'rta hamda boy mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning siqib chiqarilishi tomon o'zgardi. Bu jarayonda eng xilma-xil usullar qo'llanildi, ularning asosiylari tozalashlar hamda hisobot-saylov kampaniyalari bo'ldi. Hunarmandchilik kooperatsiyasining ijtimoiy tarkibi 1920-yillar davomida sezilarli o'zgardi. Davlat siyosati ta'sirida kam ta'minlangan qatlam va ishsiz aholi kooperativlarga keng jalb etildi. Bu jarayonda "tozalash"lar, qayta ro'yxatdan o'tkazish va hisobot-saylov kampaniyalari muhim rol o'ynadi. Natijada kooperativlar tarkibida o'rta va boy hunarmandlar ulushi qisqardi. Ijtimoiy tarkibdagi o'zgarishlar kooperativlarning ichki munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarish intizomi, mehnat unumdorligi va moddiy manfaatdorlik masalalari ko'p hollarda ma'muriy usullar orqali hal etildi. Kooperativlarda siyosiy-ma'rifiy ishlar kuchaytirildi, partiya tashkilotlari faoliyati kengaytirildi. Bu hol kooperatsiyaning xo'jalik vazifalari bilan bir qatorda siyosiy funksiyalarini ham kuchaytirdi.

Sovet davri tadqiqotlariga ko'ra, ishlab chiqarishning sotsialistik sektorini rivojlantirish yakka tartibda ishlovchi kosib-hunarmandlar va xususiy korxonalarda batrak sifatida mehnat qiluvchilarni ekspluatatsiyadan xalos qilganligi e'tirof etiladi. Jumladan, Toshkent hunarmandlarini kooperativlashtirish, hunarmandchilik kooperatsiyasini rivojlantirish toshkentlik proletarlarni sotsializm tomon yuz burdirdi, ishchi sinf otryadlarining qudratini kuchaytirdi, "kim kimni" degan qadimiy kurashdagi asosiy kuchni mustahkamlaganligi ta'kidlangan. Partiyaning kosib-hunarmandlarga nisbatan siyosati, avvalo, boylar va "nepmanlar"ning manfaatlariga qarshi qaratilgan edi, chunki ular uzoq vaqt davomida o'z kapitallari uchun qo'llanish sohasini aynan kosibchilik sanoatida topgan edilar [1:57]. Kooperativlashtirish jarayonida sinfiy tamoyilga amal qilinganligini davriy matbuot materiallari ham tasdiqlaydi. "Pravda Vostoka" gazetasining 1925-yil 25-iyun sonining "Rabochiye pisma" ilovasida yoritilgan hunarmandlarning maktublari hunarmandlarning real hayoti haqida tasavvur qilish imkonini beradi. Metallga ishlov beruvchi yakka kosib Glazunovning yozishicha, o'tgan yili soliqlar bilan juda qiynalgan. Kosib bo'lganligi uchun uyushmaga qabul qilinmagan [3].

Turkiston KP MQning 1921-yil 18-mayda hunarmandlarni kasaba uyushmalariga jalb etish masalasi muhokama qilindi. Shu yilning iyul oyida ushbu kengaytirilgan majlisda bu masala yana muhokama qilindi va hunarmandlarni kasaba uyushmalariga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga, turli fikrlar o'rtasida kurash yuz berdi. Ayrim xodimlarning ushbu qarorga qarshi chiqishlarining sababi shunda ediki, asosan davlat korxonalarida emas, balki xususiy xo'jalik sektorida ishlagan va soni jihatidan sanoat ishchilaridan ancha ko'p bo'lgan hunarmandlar kasaba uyushmalariga "mayda burjua kayfiyatlari"ni olib kirishi, shu orqali o'lkadagi kasaba uyushma harakatini shu elementlar bilan bosib ketishi mumkin, degan xavotir mavjud edi. Shunga qaramasdan, Turkiston qishloq xo'jaligi xodimlarining VI qurultoyi ham hunarmandlarni kasaba uyushmalariga uyushgan holda jalb etish tarafdori bo'ldi. O'zbekistonda va o'lkaning boshqa hududlaridagi hunarmandlar ishlab chiqaruvchilarning shunday otryadini tashkil etar ediki, ular mehnat faoliyatining xususiyati va ijtimoiy psixologiyasi jihatidan ishchi sinfiga eng yaqin turar edilar. Albatta, bu yerda gap o'z korxonalari egalari bo'lgan, o'zlari ham ishlagan bo'lsalar-da, baribir yollanma ishchi kuchidan foydalangan va mahsulotni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etgan hunarmandlar haqida ketmagan. Bunday hunarmandlar soni kam bo'lib, ular kasaba uyushmalariga qabul qilinmas edi [2:118]. Hunarmandlarning asosiy qismi yolg'iz shaxslardan, shuningdek, asosan ishchi bo'lib, oziq-ovqat, turar joy, biroz kiyim-kechakka ega bo'lgan, biroq aniq belgilangan ish haqiga ega bo'lmagan kishilardan iborat edi. Biroq KP MQning Turkistondagi kosib-hunarmandchilik kasaba uyushmalari tamoyillariga nisbatan prinsipial sinfiy-partiyaviy pozitsiyasi salbiy bo'lgan. Shu bilan birga, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlari, mahalliy ishchi sinfining proletar o'zagini bosib ketish bilan tahdid solgan mayda burjua stixiyasi, o'lkadagi sanoat ishchilarining kam sonli ekani hisobga olingan holda, Turkiston Kommunistik partiyasining VI syezdi tomonidan hunarmandlarni kasaba uyushmalari tamoyili masalasida qabul qilingan ko'rsatma xato deya bekor qilindi. 1922-yilda Turkistondagi hunarmandlar kasaba uyushmalari seksiyasi tugatildi [2:119].

Ishlab chiqarishni sotsialistik umumlashtirish xususiy sektorni to'liq tugatish degani emas edi. Sotsialistik mulkchilik paydo bo'lishi bilan bir vaqtda mayda tovar ishlab chiqarish mavjud bo'lib qoldi. Sanoat ishlab chiqarishining, asosan, hunarmandchilikdan iborat bo'lgan xususiy sektori o'zining ijtimoiy tabiatiga ko'ra ikki tomonlama tabiatga ega edi. Lekin Turkiston sharoitida yollanma mehnatdan foydalanadigan korxonalar kam edi. 1920-

yilda o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, hunarmandchilik korxonalarida band bo'lganlarning 10 foizigina yollanma ishchilar bo'lgan [4:70]. Bu davrga kelib Sovet davlatining eng muhim vazifalaridan biri hunarmandlarni ishlab chiqarish kooperativlari va artellariga jalb qilish hamda ularning uyushmalarini tuzish bo'ldi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, tabiiyki, hunarmandlardan foydalanish va boshqarish edi.

Sovet hokimiyati davrida shaharda soliqning sinfiy xarakteri o'ziga xos tarzda daromad solig'ida namoyon bo'lgan. Mavjud daromad solig'idan tashqari, RSFSR XKSning 1921-yil 26-iyuldagi qarori bilan soliq qonunchiligiga ilk bor hunarmandchilik solig'i joriy etildi. 1921-yil 3-sentabrda "nepman" foydalanishi mumkin bo'lgan qonunchilikdagi ayrim bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida patent yig'imi bilan bir qatorda yana tenglashtiruvchi yig'im ham joriy etildi. Bu yig'im yirikroq korxonalardan undirilgan edi va dastlab Ittifoqning atigi 58 shahrida, jumladan, Toshkentda joriy qilindi. Ushbu yig'im korxona quvvatini aniqlash uchun eng xarakterli ko'rsatkich hisoblangan aylanmaning 3 foizi miqdorida belgilandi. Turkiston Respublikasi XKS ocharchilikka uchraganlarga davlat yordamini tashkil etish uchun ulkan xarajalar zarurligini, shuningdek, davlatning mavjud mablag'lari bilan bu ishni bajarish imkoniyati yo'qligini hisobga olib, 1922-yil 9-yanvarda ocharchilikka yordam jamg'armasiga maxsus soliq joriy etishni zarur deb topdi. Ushbu soliq bilan savdo va sanoat korxonalari egalari, shuningdek, shaxsiy hunarmandchilik solig'iga tortiladigan shaxslar qamrab olindi. Soliq hunarmandchilik patentlari qiymatining 25 foizi miqdorida undirildi. Spirtli ichimliklar savdosi uchun patent olgan shaxslar esa ushbu patentlar qiymatining 50 foizini to'ladilar. Soliqning butun og'irligi xususiy kapital yelkasiga tushdi. Mazkur qarorni bajarmaslik uchun soliq summasining o'n barobari miqdorida jarima belgilandi, qasddan to'lamaydiganlar esa inqilobiy tribunalgacha topshirilar edi. Savdogarlar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan hunarmandchilik solig'i esa keyinchalik ular tomonidan aholi zimmasiga yuklatilib, tovarlar narxining doimiy o'sishi ko'rinishida namoyon bo'lar edi [1:63].

BXSR sanoat bo'limi hunarmandchilik ishlab chiqarishi inspektorining Savdo-sanoat noziriga 1924-yil 12-iyunda bergan axborotiga ko'ra, inspektor tomonidan hunarmandchilik artellarini tashkil etish masalasi o'rganildi va Prezidiumning talabiga ko'ra quyidagi xulosaga kelindi. Jumladan, inspektor tayyorlagan mazkur masalaga oid material ma'qullandi va BXSRda hunarmandchilik sanoatini tashkil qilish hamda rivojlantirish bo'yicha keyingi ishlar uchun asos sifatida qabul qilindi. Unga ko'ra, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, ya'ni hunarmandlarning o'zi hali hunarmandchilik ishlab chiqarishining ahamiyatini to'liq tushunib yetmaganligini inobatga olish lozim edi. Belgilangan ish yo'nalishini amalga oshirishni barvaqt deb hisoblab, avval professional faoliyatni mustahkamlash va tugallash, shuningdek, hunarmandchilik sanoatining hayotiy masalalari hamda vazifalarini aniqlash zarurligi qayd etildi. Shu sababli ushbu masalani hayotga joriy etishdan hozircha tiyilib turish maqsadga muvofiq deb topildi. Hunarmandlar uyushmasini qaytadan tashkil etish va uning a'zolarini "tozalash" ishlaridan vaqtincha voz kechish lozimligi alohida ko'rsatib o'tildi [6:42]. Kooperativlashtirish masalasining BXSRda yuqoridagi tartibda hal etilishi, ya'ni mahalliy sharoitning inobatga olinishi, o'z navbatida, keskin ijtimoiy o'zgarishlarni qishloq xo'jaligidan farqli ravishda hunarmandlar qatlamiga nisbatan qo'llash samara bermaganligining natijasi, deyish mumkin edi.

Natijalar

1925-1926-yillarda Hunarmandchilik uyushmasida tashkiliy-instruktorlik bo'limi faoliyat olib bordi va instruktorlarning faoliyati joylardagi tezkor topshiriqlarga bog'liq edi. Tashkiliy bo'limning asosiy vazifasi artellardagi ijtimoiy tarkibni "tozalash"dan iborat bo'ldi. Jami 278 ta arteldagi 10 367 nafar jismoniy shaxs tekshirildi, bu esa quyi zveno (quyi bosqich) tarkibining 78 foizini tashkil etar edi. Tekshiruv natijasida jami 339 nafar jismoniy shaxs tizimdan chiqarildi va 53 ta artel tugatildi. Jismoniy shaxslarni tizimdan chiqarib tashlashning asosiy sabablari kooperativning xususiy tadbirkorlar tomonidan soxta kooperativ sifatida ishlatilishi, artellar ijtimoiy tarkibining hunarmandchilik kooperatsiyasiga "begona" bo'lganligi, asosiy ustav qoidalariga rioya qilinmaganligi deb ko'rsatildi [7:291].

Toshkentlik boylar va nepmanlar har tomonlama sovet hokimiyatiga qarshi turishga intildilar. 1926-yilga qadar soliq siyosati va soliq bosimi xususiy kapitalga unchalik kuchli ta'sir qilmagan, chunki o'sha davrda bozor konyunkturasi va savdo-sanoat aylanmasida xususiy sektorning roli davlat apparati tomonidan hali yetarli darajada o'rganilmagan edi. Keyingi davrda esa vaziyat yangi burjuaziya foydasiga emas, aksincha, unga qarshi tomonga o'zgarib bordi. Sovet hokimiyati yanada izchilroq bo'lib, nepmanlarni keskin cheklay boshladi, bunda, jumladan, soliq va ijara to'lovlarini keskin ravishda oshirish usulidan foydalandi. Shu munosabat bilan 1926-yilda o'tgan yildagi voqealar yana takrorlandi. Davlat savdosiga boykot e'lon qilgan holda, Toshkentning savdo-sanoatchilari o'z korxonalarini yopdilar. Bundan tashqari, yana 100 nafar tadbirkor o'z muassasalarini yopish to'g'risida namoyishkorona ravishda ariza topshirdi [1:74].

Xulosa. O'zbekiston hunarmandchilik uyushmasi o'z nazoratiga tarqoq kosiblarni birlashtirgan holda, 1925-yildan 1929-yilgacha bo'lgan davrda ularni va ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirishni tashkil etish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirdi. Shu birinchi davrda hunarmandchilik kooperatsiyasi hukumat va partiya qarorlariga asoslanib, siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan masala, ya'ni qishloq xo'jaligi kooperatsiyasidagi kosib-hunarmandlarni qaytadan mahsulot ishlab chiqarish turiga ko'ra umumlashtirdi. Umumiy ustaxonalari bo'lmagan, o'z ishlab chiqarish vositalarida ishlaydigan hunarmandlarni boshqarish, qat'iy ishlab chiqarish dasturlari asosida xomashyo bilan to'g'ri ta'minlash tashkil etildi. Bundan tashqari, artellar proletar hunarmandlar qatlamini buzuvchi "zararli elementlar"dan tozalandi. Hunarmandlar orasida siyosiy tarbiya va madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish orqali ularning moddiy va maishiy ahvolini yaxshilash choralari ko'rildi. Umumlashtirish davrida barcha hunarmandlar ishlab chiqarish turiga muvofiq umumiy bir xillik prinsipiga asosan tegishli artellarga birlashtirildi. Agar muayyan sohada kerakli miqdorda hunarmandlar topilmasa, ular o'rtoqliklarini (tovarishetva) tashkil etdilar. Artellar rayon uyushmalariga birlashtirildi, ular esa O'zbekiston hunarmandchilik uyushmasiga kiritildi. Dastlabki yillardagi "kamchilik" shunda ediki, artellarga nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish, balki xomashyo bilan ham savdo qilish

huquqi berilgan edi. Bu holat hatto 1928-yilgacha davom etgan va faqat shu yildan keyin savdo to'xtatilgan. 1928-yildan boshlab mahsulot faqat davlat savdosi va matlubot kooperatsiyasi orqali, rejalarga va shartnomalarga qat'iy rioya qilgan holda sotildi. 1928-yilda o'tkazilgan tozalash natijasida ko'p sonli sobiq boylar, poplar va boshqa "yot unsurlar" aniqlanib, tizimdan chiqarib tashlandi [12:13].

Har yili O'zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi tizimida ijtimoiy tarkibni tozalash (chistka) o'tkazilar edi. 1926-yilda 53 ta soxta kooperativ tugatildi va ulardan 399 nafar shaxs chiqarib tashlandi. 1927-yilda 540 nafar soxta hunarmand chiqarib yuborildi, 1928-yilda esa 310 ta artel tekshirildi, shulardan 43 tasi soxta kooperativ ekani aniqlandi [5:63].

Xususiy kapitalni siqib chiqarishda erishilgan "yutuqlar" va soliq yuki og'irligining oshishi xususiy ishlab chiqarish faoliyatining qisqarishiga olib keldi. 1928–1929-yillarda Toshkent bo'yicha hunarmandchilik solig'i bilan asosiy soliqqa tortish kompaniyasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, xususiy sektorga tegishli korxonalar soni bir yil ichida 368 tadan 102 tagacha kamaygan, ya'ni uch yarim barobardan ortiq qisqargan [8:1–2]. 1929-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Toshkentdagi kosib-hunarmandlar orasida 4 247 nafar kishi yakka tartibda ishlagan, 9 nafari oila a'zolari yordamida, 73 nafari bitta yollanma ishchi bilan va 30 nafari ikki nafar ishchi bilan mehnat qilgan. Shu tariqa, bu vaqtga kelib jami hunarmandlar soniga nisbatan atigi 103 nafar kishi, ya'ni 2,4 foizi yollanma mehnatdan foydalangan. Yollanma mehnatdan foydalangan barcha hunarmandlar ikkinchi va uchinchi toifa soliqlariga tortilgan. Ayni paytda 1 300 nafar hunarmand hech qanday soliqqa tortilmagan va har qanday yig'implardan ozod etilgan [9:55]. Demak, sovet hokimiyatining soliq siyosati o'zining o'tkir yo'nalishini faqat mayda burjuaziyaga qarshi qaratgan edi. Hunarmand muayyan ma'noda yarim proletar hisoblanar va uni oyoqqa turg'izish uchun yordam berish lozim deb qaraldi. Shu sababli partiya va hukumat alohida sohalar va hunarmandchilik turlariga nisbatan sun'iy soliqqa tortish, soliq me'yorlarini ongli ravishda oshirishga urinishlarni qat'iy ravishda to'xtatib keldi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining keyingi rivojlanishi uchun sharoit yarata turib, davlat xususiy kapitalni cheklash va siqib chiqarish siyosatini davom ettirdi. Xususiy kapitalni butun xalq xo'jaligidan cheklash va siqib chiqarish taktikasidan uni butunlay tugatish siyosatiga o'tish bilan xususiy ishlab chiqaruvchi umuman xomashyo olish imkoniyatidan mahrum etildi. Davlat tomonidan kredit, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar berishning to'xtatilishi ko'plab mayda ishlab chiqaruvchilarni o'z hunarlarini yopishga majbur qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Исхаков П. И. Классовая борьба в городах Узбекистана в период НЭПа и создания экономического фундамента социализма (1921–1932 гг.): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1973.
2. Каримов Р. Х. Социально-экономическое развитие Узбекистана в 1921–1925 годы: узловые аспекты, исторический опыт: дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1989.
3. О чём пишут кустари // Рабочие письма. Правда Востока. – 1925. – 25 июня.
4. Шакирова С. Социалистическое преобразование ремесленно-кустарного производства в Советском Туркестане (1917–1924): дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1978.
5. Цыпкина М. А. Развитие промысловой кооперации Узбекистана: дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1953.
6. O'z MA, R-89-fond, 1-ro'yxat, 268-yig'ma jild.
7. O'z MA, R-89-fond, 1-ro'yxat, 384-yig'ma jild.
8. O'z MA, R-93-fond, 3-ro'yxat, 238-yig'ma jild.
9. O'z MA, R-93-fond, 5-ro'yxat, 444-yig'ma jild.
10. O'z MA, R-303-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'ma jild.
11. O'z MA, R-382-fond, 1-ro'yxat, 1332-yig'ma jild.
12. O'z MA, R-2325-fond, 1-ro'yxat, 30-yig'ma jild.